

FIZIKA FANIDAN SIFATLI TA'LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISH BOSH MAQSADIMIZ

Vohidova Shaxlo Isroilovna

Toshkent viloyati Piskent tumani

12-UO'T maktabi fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika fanidan sifatli ta;lim-tarbiyani tashkil etish haqida keltirilgan bo'lib, unda bir mavzularni interfaol usullar orqali o'rgatish ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: fizika, metodlar, ishqalanish, integratsiya, biologiya, tarix, birliklar.

Fizika fanini o'qitish 6-sinfdan boshlansa-da, uning dastlabki tushunchalari boshlang'ich ta'limning atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik va yuqori sinflarda tabiiy geografiya fanlarini o'rganishda shakllanadi. Jumladan, Quyosh, Yer, Oy va uning ahamiyati, ob-havo, yil fasllari, atrofimizdagi narsalar: uy anjomlari, o'quv qurollari, kiyim-kechaklar, oziq-ovqat mahsulotlari, gazdan foydalanish, uyda foydalaniladigan elektr jihozlari, kompyuter va uning imkoniyatlari, uyda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, jism va moddalar, suvning holatlari, termometrdan foydalanish, ob-havoni kundalik kuzatish, kun va tunning, yil fasllarining davriy almashinishini va boshqa tushunchalar shakllantiriladi. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilib boriladi.

Quyidagi usul va o'yinlar fizika fanini o'quvchilarga oson va tushunarli bo'lishida yordam beradi.

“ZINAMA-ZINA”TEKNOLOGIYASI. Bu texnologiyani o'tkazish uchun o'qituvchi o'quvchilarga rangli kartochkalar yordamida teng sonli kichik

guruhlariga ajratadi. Har bir kichik guruh uchun sardorlar tayyorlanadi. Sardorlar mavzu savollarini olib, o'quvchilarga birma-bir berib boradi. Agar guruh 6 ta o'quvchidan tashkil topgan bo'lsa, har bir o'quvchi savolga javob berishi lozim. Savollar guruh sardorlari tomonidan o'quvchilarning javoblarini nazorat qilinadi. O'quvchilar har bir to'g'ri javob uchun bir balldan to'plab, jami 5 ballgacha ball to'plashi mumkin. Shundan so'ng, o'qituvchi o'quvchilarning to'plagan baliga qarab qayta guruhlaydi. Har bir guruh o'zlarining iqtidoriga qarab turli xildagi topshiriqlarni beradi. O'quvchilar bu topshiriqlarni bajarib bo'lgandan so'ng, o'zaro savol-javob o'tkazadilar, har bir guruh o'z topshiriqlarini ko'rgazmali qurollar asosida bayon etadi. Topshiriqni mukammal bajargan kichik guruhlarda g'oliblar aniqlanadi va rag'batlantiriladi.



“Bahs-munozara” usuli. Bunda ma'lum bir mavzu o'rtaga tashlanadi. O'quvchilar o'z fikrlarini bildiradilar.



“Fizika va tarix” usuli. Bu topshiriqda tariximizda yashab ijod qilgan 4 nafar olimlarni va ijodini o'rganib kelish belgilangan edilar. 4 nafar o'quvchi chiqib ularni rasmlarini kimligini topib ijodi haqida gapirib berish kerak, bu vaqtda ikkala guruh a'zolariga testlar beriladi.

Ilg'or tajribaga ega bo'lgan milliy va xorijiy ekspertlarni ta'lim mazmunini takomillashtirishga jalb etildi. Ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dastur talablari va spiralsimon o'qitish metodologiyasi asosida 21 asr ko'nikmalarini rivojlantirish. O'qitishning samarali metodologiyasi joriy etildi.

Formulalarda karikatura

$$\frac{1}{F} = \frac{1}{f} + \frac{1}{d}$$

19

“Fizika va biologiya musobaqasi” usuli. Bu topshiriqda ikkala guruhdan 1 nafardan o'quvchi doskaga chiqib hayvonlarni va qushlarni tezligiga qarab tartib bilan joylashtirish kerak.

- | | |
|------------------------|---------------------------------|
| . Qoplon – 112 km/soat | . Afrika tuyaqushi – 80 km/soat |
| . Jayron – 95 km/soat | . Lochin – 64-77 km/soat |
| . Arislon- 65 km/soat | . Qaldirg'och – 54-63 km/soat |
| . Quyon- 60 km/soat | . Ninachi – 36 km/soat |
| . Bo'ri- 55-60 km/soat | . Chumchuq – 35 km/soat |
| . Jirafa – 51 km/soat | . Asalari – 25 km/soat |
| . Kenguru-48 km/soat | . Pashsha – 18 km/soat |
| . Ot – 46 km/soat | . May qo'ng'izi – 11 km/soat |

Fizika darslarida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish maqsadida DTSda quyidagilar haqida a'lohida to'xtalib o'tilgan: vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, darslikda

keltirilgan, ushbu fan sohasi rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan allomalarning ibratli hayotini bilish, urf odatlarni bilish va hurmat qilish ruhida tarbiyalash.

“Jamoaviy mashg‘ulot” usuli. Bu usul quyidagicha tashkil etiladi.



Xulosa qilib aytganda, fizika fani texnikaning nazariy poydevorini tashkil qiladi. Fizikaning rivojlanishida kishilik jamiyatining rivojlanishi, tarixiy davrlarning ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlari ma’lum ahamiyatga egadir. Shu o`rinda bugun shiddat bilan rivojlanayotgan ilm-fan har bir pedagogdan chuqur izlanishni talab etishini unutmazlik lozim. Fizika fani o`qitishda ham innovatsion ta`lim usullari muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdiyeva O.B., Mirsaburov M. Matematika va fizika fanini o`qitish metodikasi moduli bo`yicha o`quv uslubiy majmua. – Termiz-2020-yil
2. Darslik va internet saytlari: -Ziyo.Net, -kitob.uz